

ARTISTIC FEATURES OF O'TKIR KHOSHIMOV'S "DUNYONING ISHLARI" (THE
AFFAIRS OF THE WORLD) "PICTURE"

Ochilova Gulsevar Odil qizi

1st-year student, Uzbekistan State University of World Languages

Ahadova Hulkaroy Zarifxon qizi

ABSTRACT

When a person comes into this world, they must first understand one important truth. The ones who brought us into life, who fed us even when they themselves went hungry, who dressed us while depriving themselves, who never complained about heat or cold, and who sacrificed their own dreams for ours — these are our parents.

This article discusses the novella "The Affairs of the World" written by O'tkir Hoshimov. The work is dedicated to our beloved mothers. Throughout the story, various life-based episodes about mothers are presented. While reading, we witness the pure Uzbek maternal nature, the deep affection and compassion a mother holds for her child, and naturally, the image of our own mothers emerges before our eyes.

The more you read, the more you want to continue, and you find yourself emotionally connected to the book. The author writes, "I wish all the mothers of the world could read this book." From this, we understand that the story is not only about the author's mother, but about mothers all around the world.

Keywords: Mother, lullaby, portrait, to appreciate, compassion, "Where is sleep, my child?".

**O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARINING BADIY
XUSUSIYATLARI HAMDA "SURAT" HIKOYASI HAQIDA**

ANNOTATSIYA

Inson dunyoga kelar ekan avvalo bir muhim narsani anglab yetmog'i lozim. Bizni dunyoga kelishimizga sababchi bo'lgan, bir parcha go'sht holimizdan toki shu darajaga kelgunimizga qadar o'zi yemay yedirgan, kiymay kiydirgan, issiqni issiq, sovuqni sovuq demasdan bizning orzularimiz uchun o'z orzularidan voz kechgan zot bizning ota-onamiz hisoblanadi. Ushbu maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimovning qalamiga mansub "Dunyoning Ishlari" qissasi haqida fikr yuritiladi. Ushbu asar jonajon onalarimizga bag'ishlanadi. Asar tarkibida onalarimiz haqida hayotiy hikoyalar keltirib o'tiladi. Asarni o'qish mobaynida yozuvchining onasidagi o'zbekona xilqat, bolasiga bo'lgan mehr-oqibatni guvohi bo'lib ko'z oldimizga bevosita onalarimiz gavlalanishi ajab emas. O'qigan saringiz o'qigingiz kelib, kitobni ichiga bevosita bog'lanib qolasiz. Asarda "Butun dunyo onalari bu asarni o'qishini xohlardim" degan jumla bor. Bundan ko'rinib turibdiki, asar nafaqat yozuvchining onasi, balki butun dunyo onalari haqidaligini anglab yetamiz.

KALIT SO'ZLAR: ona, alla, surat, qadriga yetmoq, mehr-oqibat, "uyqu qayerda bolam"

**УТКИР ХОШИМОВ «ДЕЛА ЖИЗНИ» — ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ
И РАССКАЗ «ФОТОГРАФИЯ»**



АННОТАЦИЯ

Человек, приходя в этот мир, прежде всего должен осознать одну важную истину. Те, кто стали причиной нашего появления на свет, кто с момента, когда мы были лишь «кусочком плоти», до сегодняшних дней отказывались от своего ради наших желаний, кормили нас, не доедая сами, одевали, не покупая себе, не различали холод и жару ради нашего будущего — это наши родители.

В данной статье рассматривается повесть «Дела жизни» («Dunyoning ishlari»), принадлежащая перу писателя Откира Хошимова. Произведение посвящено нашим дорогим матерям. В его содержании приводятся жизненные рассказы о матерях. Читая повесть, мы становимся свидетелями узбекского материнского характера, безграничной любви и заботы, и невольно перед глазами встаёт образ нашей собственной матери. Чем больше читаешь, тем сильнее хочется продолжать — как будто становишься частью книги.

В произведении есть фраза: «Я хотел бы, чтобы все матери мира прочитали эту повесть». Из этого становится ясно, что книга посвящена не только матери писателя, но и всем матерям мира.

Ключевые слова: Мать, колыбельная, портрет, ценить, сострадание, «Где же сон, мой ребёнок?».

KIRISH

Asar o'z o'zidan hosil qilinaverilmaydi. Buning uchun insonda badiiy mahorat, so'z uyg'unligi, hamda hayotiy kechinmalarni o'quvchining yurak yuragiga singib ketadigan tarzda tasvirlash qobiliyati bo'lishi lozim. So'zlarni matn, matnni hikoya, asar ko'rinishiga keltirguncha yozuvchidan ancha mashaqqat talab qilinadi. Bu esa har qanday insonning ham qo'lidan kelavermaydi. Eng muhimi so'zlardan to'g'ri foydalanishdir. So'z, birgina so'z insonning hayotida kattagina ahamiyat kasb etadi. O'sha birgina so'z inson ongiga qanday shakllanganini bilasizmi? Ha, albatta, go'dakligimizdan qulog'imizga singib ketgan ONA ALLASI orqali. So'z sehr, mo'jiza bilan insonni o'ziga mahliyo qiladi, rom etadi. Shuning uchun go'dak allaga, kichik yoshdagi bola ertakka, kattalar badiiy ijodning turli ko'rinishlariga nihoyatda qiziqib qaraydilar, ularning olamiga kirib qolgach, o'zlarini ham shu olamga mansub deb hisoblaydilar. [1] Sizningcha badiiy adabiyotning boshqa sohalardan qanday farqi bor? Nima sababdan insonlar unga bog'lanib qolishadi? Buning sababi badiiy adabiyotda insoniy ichki kechinmalar, hayotiy voqealar izchilligi ta'sirli tarzda namoyon qilinadi. Inson bir asarni o'qir ekan o'z o'zidan uning ichiga kirib ketib qoladi. Bu ham bo'lsa tasviriy ifodaning mukammalligidan, asarning ta'sirchanlik darajasi yuqoriligidan dalolat.

MUHOKAMA

XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va uslubiga ega bo'lgan adib - O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov, aytish mumkinki, XXI asr o'quvchisining ham sevimli adibi bo'lib qoladi.

Jonli va hayotiy tasvirlar, sof o'zbekona yondashuv va harakter, qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar mutolaasi o'quvchini o'z ta'siri ostiga oladi. Nafaqat millat, balki chin insoniylik tarannumi yozuvchi asarlarida yetakchilik qilishi kitobxon uchun tarbiyaviy va hayotiy saboq bo'ladi. Xoh jiddiy, xoh hajviy bo'lsin O'tkir Hoshimov asarlarida hayot qaynaydi: unda har birimiz o'zimizni, oilamizni, do'st-u yorimizni, hatto hech kimga o'xshamagan onamizni ko'ramiz.



Bir inson umrini qamragan roman bo'lsin, qator novellalardan iborat qissa yoki hikoya bo'lsin, janridan qat'i nazar, O'tkir Hoshimov asarlarida dunyoning ishlari mujassam. Mutolaa har qanday o'quvchi uchun katta hayotiy xulosa berishiga ishonamiz.[2]

O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasi katta kichik hikoyalardan iborat bo'lib, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "Sharq nashriyoti" tomonidan nashr etilgan. Ushbu asar onalar haqida bo'lib, asar haqida ko'plab ijobiy fikrlarni eshitishimiz mumkin. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta'riflagan: "„Dunyoning ishlari“ asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzarimizni aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi".[3] Asar boshida bevosita ushbu jumalarga ko'zimiz tushadi va beixtiyor o'ziga jalb qiladi. Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga o'xshaydi. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi.

NATIJALAR

Bas, shunday ekan bu asar sizlarga bag'ishlanadi, aziz Onajonlar! Ushbu jumlaning o'qir ekansiz, asar bevosita onalarimizga bag'ishlanganini tushunib yetasiz. Asardagi hikoyalardan biri "Surat" hikoyasi haqida gaplashsak. Inson ota onani doimo biz bilan birga bo'ladi, hech qachon bizni tashlab ketishmaydi deb o'ylaydi. Lekin afsuski, Alloh ota-onani insonga abadiy bog'lab qo'ymagan. Har bir inson qismatida bir kunmas bir kun chiroyli yakun yozilgan va buni hech kim o'zgartirolmaydi. Ushbu "Surat" hikoyasida ham yozuvchining onasining gaplari yozuvchiga go'yoki qo'shninikiga chiqib kelaman deganday eshitaladi. "Dunyoning ishlari doim shoshilinch..." Dunyo ishlari bilan band bo'lib, yaqin insonlarimiz holidan xabar olishga, ularga vaqt ajratishga imkon topolmaydi kishi. Bunga misol tarzda "Tush" hikoyasiga to'xtalib o'tsak: onamiz bizga ish buyursa uff deymizu oddiy ishlarni qilishga ham erinamiz, og'rinamiz xuddi ular yonimizda abadiy qoladigandek ba'zida ularga bo'lgan mehrimizni yashiramiz, turli yumushlar bilan band bo'lib bitta telefon qilishga ham ba'zida vaqt topolmaymiz. Yozuvchi ishdan kech kelganlarida onaizor uxlamay kelishlarini kutib, u kishini qarshi oladilar, yozuvchi esa nimaga uxlamadingiz deya jahl qiladilar. Shunda onasi: "Uyqu qayerda bolam" deb qo'yadi. Vaqti kelib ona olamdan o'tadi. Ishdan yana kech kelganida hamma uxlagan, ona uyining chiroqlari o'chgan edi... Surat hikoyasi so'nggida esa ushbu jumalarga ko'zimiz tushishi mumkin: "Oradan ikki hafta o'tdi-yu... Kechalari uyg'onib ketaman, o'ylayman. O'ylayman sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o'shanda kulding? Suratga tushishga vaqting yo'qmidi? Kerak bo'lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog'da, ko'chada... Nima, sen kinoyulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q. Ushbu hikoyani o'qish mobaynida bevosita har bir kitobxonning ko'ziga yosh kelishi ajab emas. Bu yolg'on dunyoning tashvishlari bilan bo'lib hayotimizdagi eng quvonchli, eng qiziq, eng kerakli damlarni shunchaki o'tkazib yuboramiz. Lekin, vaqt o'tgach tushunib yetamizki, biz juda adashganimizni, o'sha biz uchun oddiy tuyulgan narsalar aslida biz uchun eng kerakli narsa ekanini, biz tezroq o'tib ketishini xohlagan soniyalarimiz esa aslida, bizning umrimiz, hayotimiz ekanini. Kech... Barchasini boshidan boshlash uchun endi kech bo'lganini tushunib yetamiz. Ba'zida shunday vaziyatlar bo'ladi, bilib bilmay ota-onamizga ovozimni ko'targan holda muomala qilamiz, ba'zan esa ularning pand-nasihatlarini bizga malol keladi, oddiy gapdek tuyuladi, beparvolik bilan munosabat bildiramiz. Hamma narsani vaqt ko'rsatadi deganlaridek, kun kelib biz ham ota-ona bo'lamiz.



O`shanda farzandimiz biz ota-onamizga qilgan muomalamizni bizga qaytarsa nima bo`ladi? Tushunib yetamizki, ularga oson bo`lmagan. Biz har baland ovozda gapirganimizda ular ichida nimalarni his qilishmadi ekan deysiz? Men shu umid ila katta qilgandimmi degan o`y ularning ich-etini yeb bitirmaganmikin? Yozuvchi ham aslida ushbu hikoyalar orqali bizga hayotni , yaqin insonlarimizni vaqtida qadriga yetishimizni, ichimizdagi gaplarni , ularga bo`lgan mehrimizni vaqtida izhor qilishimiz kerakligini uqtirmoqchi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir muvaffaqiyatimizga, erishgan natijalarimizga avvalo, ota-onamizning hissasi ulkandir. Ularning beminnat duosi sabab, bizga bergan tarbiyalari sababli biz shu kunlarga yetib keldik. Inson bir ishni boshlar ekan , eng avvalo, ota-ona roziligini olmog`i darkor. Ularning norizoligi orqali hech kim hech narsaga erisholmaydi. Yozuvchi ham ushbu asar orqali ota-onani borida qadriga yetishni, ular o`tgandan keyingi hayot avvalgisidan butunlay farq qilib , har doim nimadir kamdek tuyulishini uqtirib o`tgan.Yozuvchi ushbu asarini onasiga bag`ishlagani kabi , men ham ushbu maqolamni mehribon onajonimga bag`ishlayman. Onajonlarimiz baxtimizga sog` - omon bo`lsinlar.

REFERENCES

1. Hoshimov.O`.(2018) .” Dunyoning Ishlari”. Qissa -T: O`qituvchi
2. Hoshimov.O`.(2019). “ Dunyoning Ishlari” “Yangi asr Avlodi“
3. Hakimov Bobur. Ozoda Odiljon qizi. O`.Hoshimovning “Dunyoning ishlari asari badiiy – falsafaviy tahlili . (Itijo) hikoyasi haqida.
4. Jo`rayev.U.O`tkir Hoshimov adabiy merosi.-T: Fan,2017.
5. Karimov. N. (2008) XX asr adabiyoti manzaralari. T: O`zbekiston.
6. Rasulov.B.”O`tkir Hoshimov ijodining badiiy xususiyatlari”. – O`zbek tili va adabiyoti jurnali.

Internet manbalar:

- O`tkir hoshimov hayoti va ijodi haqida: O`zbek adabiyoti portallari, ilmiy maqolalar, adabiyotshunoslik saytlari.
- “Dunyoning ishlari” asariga doir tahlillar(maqolalar, referatlar, sharhlar.)

